

O`QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYATNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası
O`qituvchisi Obidova Irodaxon Xotamjon qizi.
“Maktabgacha ta’lim va maxsus Pedagogika”
fakulteti sirtqi ta’lim 305-guruh talabasi.
Sotqinova Shoxsanam Xayrulla qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19454153>

Annotatsiya: Maqolada o`qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismlari, mazmuni va ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish omillari va zamoniy ta’lim jarayonidagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Pedagogik qobiliyat o`qituvchi kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko`rsatadi.

Kalit so`zlar: pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat, kasbiy kompetensiya, empatiya, didaktik qobiliyat, kommunikativlik

Аннотация: В статье анализируются составные части, содержание и влияние педагогических способностей на эффективность обучения в деятельности учителя. На основе научных источников освещено значение факторов развития педагогических способностей в современном образовательном процессе. Показано, что педагогические способности являются важной составной частью профессиональной компетентности учителя.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, педагогические способности, профессиональная компетенция, эмпатия, дидактические способности, коммуникативность.

Abstrakt: The article analyzes the components and content of pedagogical ability in teacher activity, as well as its impact on educational effectiveness. Factors for developing pedagogical ability and its importance in the modern educational process are highlighted based on scientific sources. It shows that pedagogical ability is an important part of a teacher’s professional competence

Keywords: pedagogical skill, pedagogical ability, professional competence, empathy, didactic ability, communicativeness.

Ma’lumki, har qanday jamiyatning kelajagi va taraqqiyoti uning barkamol avlodiga, yoshlarga berilayotgan ta’lim va tarbiya sifatiga bevosita bog`liqdir. O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining poydevori aynan maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanmoqda. Aynan, inson shaxsining asosi, uning dunyoqarashi va xarakteri aynan 3-7 yosh oralig`ida shakllanib boradi. Shuning uchun, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilardan nafaqat yuqori bilim saviyasi, balki kuchli mahorat va pedagogik qobiliyat talab etilmoqda.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim jarayoniga joriy etilgan “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi tarbiyachi zimmasiga bolaga shunchaki bilim beruvchi shaxs sifatida emas, balki uni yo`naltiruvchi, rivojlantiruvchi va u bilan samimiy muloqotga kirisha oladigan pedagog sifatida qarash mas`uliyatini yuklaydi. Maktabgacha ta’lim tizimida pedagogning pedagogik qobiliyati va kasbiy tayyorgarligi juda muhimdir.

Pedagogik qobiliyat – bu pedagogning o`quv-tarbiya jarayonida bolalar bilan o`zaro hamkorlikni to`g`ri tashkil etish, ularning ruhiy holatini tushunishi va ta`lim berishning eng maqbul usullarini topa olishidir.

Pedagogik qobiliyat o`qituvchining bilim, muloqot, ko`nikma, nazorat-baholash va innovatsion yondashuvlarni ta`lim jarayonida qo`llash qobiliyatiga aytiladi. Bu qobiliyat o`qituvchining tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish . o`quvchilarga individual yondashish, dars samaradorligini oshirish kabi ko`nikmalarni o`z ichiga oladi.

Pedagogik qobiliyat bu tug`ma iste`dod emas , balki doimiy o`qish, o`z ustida ishlash va tajriba orqali rivojlanadigan sifattir.

Pedagogik mahorat- ta`lim – tarbiya jarayonini samarali va maqsadga muvofiq tashkil etish imkonini beruvchi kasbiy ustalikdir. U metodik ko`nikmalar, nazariy bilimlar, pedagogik muloqot va psixologik kompetensiyalarni o`zida mujassamlashtirgan. Bu fanning nazariy asoslari o`qituvchining o`quvchilar bilan samarali muloqotidan tortib , dars rejasini yaratish, baholash, individual yondashuv va innavtsion metodlarni qo`llashgacha bo`lgan elementlarni qamrab oladi.

Pedagogik mahorat o`qituvchiga o`quvchining faolligini oshirish hamda darsni samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu o`qituvchi va o`quvchi orasidagi muloqot, shaxsga yo`naltirilgan yondashuv, o`quvchilarning xohish – istaklarini hisobga olish kabi amaliy ko`nikmalar orqali amalga oshadi. Yaxshi pedagogik qobiliyatga ega o`qituvchi dars samaradorligini oshirib, har bir o`quvchining iqtidorlari, individual ehtiyojlari va psixologik xususiyatlarini inobatga oladi, shu bilan birga ta`lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Pedagogik qobiliyat quyidagi qismlardan iborat:

- Didaktik qobiliyat
- Kommunikativ qobiliyat
- Tashkilotchilik qobiliyati
- Empatik qobiliyati

Didaktik qobiliyat- o`quv materialini qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazish mahoratini bildiradi.

Kommunikativ qobiliyat- ota – onalar va bolalar bilan samarali muloqot o`rnatish imkonini beradi.

Empatik qobiliyat bolalarning hissiy holatini tushinish va ularni qo`llab -quvvatlashda muhimdir.

Tashkilotchilik qobiliyati esa pedagogning ta`lim jarayonini tartibli va samarali olib borishini ta`minlaydi.

Mashhur pedagog olim Konstantin Ushinskiy o`qituvchi shaxsini tarbiyasining asosiy omili sifatida baholagan. Uning fikricha , o`qituvchining shaxsiy namunasi va mahorati o`quvchi shaxsining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Anton Makarenko ta`lim jarayonida o`qituvchining tashkilotchilik va yetakchilik qobiliyatiga alohida e`tibor qaratgan.

Vasiliy Suxomlinskiy esa o`qituvchining mehr-muhabbati va empatiyasini tarbiyaning muhim sharti deb hisoblagan.

Zamonaviy tadqiqotlarda ham pedagogik qobiliyatning ta`lim samaradorligiga ta`siri keng yoritilgan.

John Hattie o`zining Visible Learning asarida o`qituvchi omili o`quvchilarning muvaffaqiyatiga eng katta ta`sir ko`rsatuvchi omillardan biri ekanligini ilmiy asoslab bergan.

Pedagogik qobiliyati yuqori bo’lgan tarbiyachi bolajonlar bilan samarali muloqot o’rnata oladi, ijobiy psixologik muhit yarata oladi, individual yondashuvni ta’minlaydi, ta’lim sifatini oshiradi.

Pedagogik qobiliyat quyidagi omillarni ta’sirida rivojlanadi;

- Uzluksiz kasbiy ta’lim
- Pedagogik amaliyot
- Ustoz – shigird an’analar
- O’z- o’zini rivojlantirish
- Pedagogik refleksiya

Bugungi globallashtirish jarayonida ta’lim tizimi raqamlashtirilmoqda. Bu esa o’qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy moslashuvchanlikni talab qiladi. Pedagogik qobiliyat zamonaviy sharoitda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- O’quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish;
- Ijodkorlikni rag’batlantirish
- Mustaqil ta’lim ko’nikmalarini shakllantirish;
- Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish;

Shuning uchun pedagogik qobiliyat ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik qobiliyat o’qituvchi kasbiy mahoratining asosiy tarkibiy qismi bo’lib, ta’lim jarayonining samaradorligini belgilaydi.

N.A.Muslimovning ilmiy qarashlariga ko’ra, pedagogik mahorat nazariy bilim, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika va kasbiy kompetentlik uyg’unligida shakllanadi.

Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish o’qituvchining o’z ustida ishlashi, uzluksiz kasbiy o’sishi va innovatsion faoliyati bilan chambarchas bog’liqdir. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirish har bir o’qituvchining ustuvor vazifasiga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Pedagogik mahorat- Toshkent: O’qituvchi, 2012.-320 b.
2. G’oziyev .E Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O’qituvchi, 2010.- 256 b.
3. Yo’ldoshev J. Pedagogika nazariyasi va tarixi.- Toshkent: Fan, 2015.- 280 b.
4. Komenskiy Yan Amos. Buyuk didaktika. – Toshkent: O’qituvchi, 2008-400 b.
5. Makarenko Anton. Pedagogik poema. – Toshkent : Yosh gvardiya, 1985.- 368 b.